

NAVBATDAGI “HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVI O‘TKAZILDI



NAVBATDAGI “HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVI O‘TKAZILDI

Bugun, 26 oktyabr kuni Termiz shahar 26-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida “Tuproqqo‘rg‘on” va “Bog‘ishamol” mahallalarining yoshlari hamda “O‘qituvchilarni qayta tayyorlash” institutida “Baynalmilal” mahallasi yoshlari bilan “Hokim va yoshlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda 50 ga yaqin yoshlar hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi.

Mazkur uchrashuvlarda shahar hokimi O‘ktam To‘rayev tomonidan yoshlarning ish bilan ta‘minlash, kontrakt to‘lovi, imtiyozli kredit, iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek uy-joy va boshqa masalalardagi murojaatlari tinglandi. Xususan, iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tegishli mablag‘lar ajratilishi belgilandi hamda o‘rganish, shuningdek muddat talab qilinadigan murojaatlar yuzasidan mutasaddi tashkilot rahbarlariga topshiriqlar berilib, tegishli tartibda nazoratga olindi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

